

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Yirik soliq to‘lovchilarni rivojlantirishni ilg‘or jaxon tajribalari tahlili

Xushatov Nuriddin Maxmatqulovich

*O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo‘mitasi
huzuridagi Fiskal institut magistranti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Yirik soliq to‘lovchilarning soliq ma‘murchiliginini amalga oshirishning xorij tajribasi tahlil qilingan bo‘lib, bu tahlillar natijasida O‘zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligini takomillashtirish masalalari, Yirik soliq to‘lovchilarning soliq ma‘murchiliginini yanada takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: soliq, byudjet siyosati, byudjet, soliq ma‘murchiligi, yirik soliq to‘lovchilar, xorij tajribasi, soliq salohiyati, soliq yuki, soliq stavkasi, soliq imtiyozlari.

Kirish: soliq to‘lovchilarni turli xil xususiyatlarga ko‘ra, toifalarga ajratish, ularning bu xususiyatlarini ijtimoiy-iqtisodiy nufuzi jihatidan yondashgan holda ularga nisbatan alohida soliq rejimlariga asoslangan ma‘murchilikni qo‘llash tajribasi dunyo mamlakatlarida anchayin takomillashib bormoqda. Bunday yondashuvlarning asosiy o‘zagiga qaraydigan bo‘lsak, bir tomondan soliq to‘lovchilarning faoliyatini davlatning moliyaviy instrumentlaridan samarali foydalanish asnosida davlatning moliya siyosatini soddallashtirishga qaratilgan bo‘lsa, boshqa tomondan har qaysi davlatning bosh fiskal masalasi bo‘lgan davlat byudjeti daromadlarini qulay va maksimal darajada shakllantirishga qaratilgan siyosatning samaradorligiga erishishdan iborat bo‘ladi. Bu esa, yirik soliq to‘lovchilar toifasiga kiruvchi korxonalarini aniqlash, ularning faoliyatini soliqlar vositada optimal boshqarish masalalarini rivojlantirish borishni taqozo etadi.

Rossiya Federatsiyasida sub’ekt ko‘rib chiqilayotgan toifaga tegishli ekanligini belgilab beruvchi mezonlar Federal soliq xizmati tomonidan belgilanadi. Ushbu mezonlar vaqt-vaqt bilan mamlakatdagi mavjud iqtisodiy vaziyatga qarab

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

o‘zgartirilib turiladi. Amaldagi qonunchilikda yuridik shaxslar (yirik soliq to‘lovchilar) ro‘yxati keltirilgan bo‘lib, u tegishli darajada soliq solish predmetiga muvofiq ularni nazorat qilishni farqlashni (mintaqaviy, federal darajadagi nazoratni) nazarda tutadi. To‘lovchini yirik toifasiga kiritish uchun quyidagilar hisobga olinadi:

1. Moliyaviy-iqtisodiy xo‘jalik faoliyati ko‘rsatkichlari (MIX).

Korxonaning buxgalteriya va soliq hisoboti ma’lumotlari asosida aniqlanadi.

2. Soliq huquq munosabatlarining boshqa ishtirokchilari bilan o‘zaro bog‘liqlik mezonlari, kompaniyaning o‘zaro bog‘liq tuzilma faoliyati va uning ish natijalariga ta’siri darajasini ifodalovchi ko‘rsatkichlar.

3. Xo‘jalik yurituvchi sub’ektda muayyan faoliyat turini amalga oshirish uchun maxsus ruxsatnomasi (litsenziya) mavjudligi.

4. Tahlil qilinayotgan korxona ishini doimiy monitoring qilish natijalari va shu kabilar.

Mustaqil davlatlar tajribasini Qиргизiston Respublikasi misolida yirik soliq to‘lovchilarga oid soliq ma’murchilagini ko‘rib chiqamiz. Qиргизiston Respublikasi Soliq kodeksining 102-moddasiga asosan yirik soliq to‘lovchilar toifasi Qиргизiston Respublikasi Hukumati belgilab bergan mezonlarga muvofiq belgilanadi. Qиргизiston Respublikasi Hukumatining 2011 yil 7 apreldagi “Soliq ma’muriyatshiligi qoidalari va tartibi tasdiqlash to‘g‘rida”gi qaroriga muvofiq “Yirik soliq to‘lovchilarni aniqlash mezonlari va tartibi to‘g‘risida”gi Nizom tasdiqlangan bo‘lib, quyidagi shartlardan biriga javob bergan soliq to‘lovchilar yirik soliq to‘lovchilar tarkibiga kiritiladi. Jumladan:

- oxirgi 12 oy ichida tanlangan buxgalteriya usuli va belgilangan standartlarga muvofiq tovarlarni, ishlarni, xizmatlarni sotishdan tushadigan mablag‘lar:

a) savdo faoliyatidan 50 mln.so‘m va undan yuqori tushum bo‘lgan soliq to‘lovchilar;

b) “a” banddan tashqari soliq to‘lovchilar uchun 20 mln.so‘m va undan yuqori tushum bo‘lgan soliq to‘lovchilar;

- oxirgi 12 oyda hisoblangan va to‘langan soliqlar va majburiy to‘lovlari miqdori 2,5 mln.so‘mdan oshgan soliq to‘lovchilar;

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

- sof aktivlari qiymati (majburiyatlarni olib tashlagan holda) 5 mln.so‘mdan oshgan soliq to‘lovchilar va shu kabilar.

Belorussiya Respublikasi yirik soliq to‘lovchilar toifasiga shartlarga javob beruvchi Belorussiya tashkilotlari hisobot yilining 1 oktyabrgacha tahlil qilinib, navbatdagi yilning 1 yanvaridan yirik soliq to‘lovchi maqomi beriladi va ikki yil davomida saqlanib qolinadi. Belorussiya Respublikasi Soliq kodeksining 82-moddasiga muvofiq yirik soliq to‘lovchilar soliq nazoratining o‘ziga xos xususiyatlari keltirib o‘tilgan.

Germaniyada yirik soliq to‘lovchilarni aniqlashda qo‘llaniladigan tarmoq mezonlari quyidagilardan iborat: savdo - 7,3 million evrodan ortiq tovar aylanmasi yoki 280 000 evrodan ortiq foyda, ishlab chiqarish - 4,3 million evrodan ortiq tovar aylanmasi yoki 250 000 evrodan ortiq foyda, Frinlanserlar - 4,7 million evrodan ortiq tovar aylanmasi yoki 580 000 evrodan ortiq foyda, moliya muassasalari - 140 million evrodan ortiq haqiqiy sof aktivlar qiymati yoki 560 000 evrodan ortiq foyda, sug‘urta kompaniyalari - 30 million evrodan ortiq sug‘urta mukofotlaridan tushum - qishloq xo‘jaligi va o‘rmonchilik kompaniyalari - erga asoslangan iqtisodiy qiymati 230 000 euro yoki 125 000 evrodan ortiq foyda, boshqa korxonalar - 5,6 million evrodan ortiq tovar aylanmasi yoki 330,000 evrodan ortiq foyda.

Fransiyada esa tovar aylanmasi 400 million evrodan ortiq (QQS yoki yalpi aktivlardan tashqari) va 50 foizdan ortiq bog‘langan (to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita) kompaniyalar yirik soliq to‘lovchilar toifasiga kiritiladi.

Xulosa va takliflar:

Yuqoridagi ilmiy-nazariy tahlillarimizdan kelib chiqib ayrim xulosalarni keltirish mumkin:

Soliq kodeksining 36-moddasiga asosan doimiy muassasa deganda har qanday bo‘linma tushunilishi sababli, yuqoridagi nizomning e) bandini “uglevodorod hom ashyosi va mineral resurslarni qazib oluvchi, qayta ishlovchi, etkazib beruvchi va sotuvchi hamda elektr energiyasini ishlab chiqaruvchi va etkazib beruvchi yuridik shaxslar va ularga tovar (ish va xizmat) etkazib beruvchi chet el yuridik shaxslarining O‘zbekiston Respublikasidagi doimiy muassasalari. Bundan

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

avtomobilarga yoqilg‘i quyish shahobchalari mustasno” tahririda o‘zgartirish taklif etiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

Ўзбекистон Республикаси Солик кодекси- Тошкент: Гафур Ўлом нашриёт уйи 2020.- 640 б.